



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

IQON SHEVASINIUNG O'ZBEK ADABIY TILI VA AYRIM O'ZBEK SHEVALARIGA MUNOSABATI

THE RELATIONSHIP OF THE IKON DIAGRAM TO THE UZBEKISTAN LITERARY LANGUAGE AND SOME UZBEKISTAN DIALECTS

Zoxira XIDRALIYEVA,

*ToshDO 'TAU dots. v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NYZQ4634*

Annotation. *This article aims to study the relationship of the Iqon dialect, which is part of the Uzbek language, to the literary language and some Uzbek dialects, and to identify its unique phonetic, morphological, and lexical features.*

Key words: *literary language, Turkic language, dialect, Karluk, Kipchak, Oghuz, northern uzbek group dialects.*

Fonetik belgilari. O'zbek shevalarida unli tovushlar miqdori turlicha [Ashirboyev 2021; Шоабдурахмонов 1962; Мирзаев 1969]. Iqon shevasi unlilar tizimida esa kontrast juftiga ega bo'lgan 9ta unli: *a-ä, e, o-ö, u-ü, i-i* mavjud. Tayanch shahar shevalari va adabiy tilda *a-ä, o-ö, u-ü, i-i* konvergensiya uchragan bo'lsa, Iqon shevasida mustaqil tovush sifatida ma'no farqlash xususiyatiga ega. Masalan: *as* (osmoq) – *äs* (es); *ot* (o'simlik) – *öt* (o'tmoq), *qul* – *kül*, *qir* – *kir* kabi.

Ushbu unlilar o'zining cho'ziq variantlariga ega. Shu bois, shevada: *a – a:, ä – ä:, e – e:, o – o:, ö – ö:, u – u:, ü – u:, i – i:, ĩ – ĩ:* kabi 18 ta unli tovushni qayd etish mumkin. Ushbu xususiyatiga ko'ra unlilar qator o'g'uz, qipchoq va qarluq guruh shevalaridan son va sifat jihatidan farq qiladi [Xidraliyeva 2021; 54-68].

Qarluq tip shevalari va adabiy tilda (*ā*) unlisi qo'llansa, shevada umumturkiy *a* unlisi saqlangan. Masalan *at, aja, apa, baba, aya, bala* kabi. Adabiy til va Toshkent guruh shevalaridagi *ā, ä* unlilariga aksariyat o'rinlarda umumturkiy *a* unlisi mos keladi: *ālmā* (olma) – *a:lma*, *xālā* (xola) – *xa:la*, *qālpāq* (qalpoq) – *qalpaq*, *ānār* (anor) – *anar* kabi, chunki shevada singarmonizm qonuni amal qiladi.

Iqon shevasida adabiy til va aksariyat o'zbek shevalarida kuzatilmaydigan, qadimgi turkiy tilning tabiati bilan bog'liq bo'lgan birlamchi choziqlik saqlangan: Masalan: *aš* (ochmoq) – *a:š* (ochlik), *jaz* (yozmoq) – *ja:z* (yoz fasli), *uš* (uchmoq) – *u:š* (chiroq), *qij* (qirqmoq) – *qī:j* (qo'y go'ngi), *iš* (ichmoq) – *i:š* (ish) va boshqalar. Bu xususiyati jihatidan Xorazm o'g'uz shevalari bilan umumiylikka ega, lekin Xorazm shevalarida, asosan, so'zlarning birinchi bo'g'inida kelsa, Iqon shevasida unlilarning birlamchi cho'ziqligi ikkinchi va uchinchi bo'g'inlarda ham uchraydi: *ergashtir* – *äjä:rt*, *ulgurji* – *kötä:räsi*, *bechora* – *bajayu:š* kabi.

Shevada etimologik old qator *ä* unlisining birinchi bo'g'inda qo'llanish doirasi keng, adabiy til va tayanch shahar shevalaridagi *e* unlisiga mos keladi. Masalan: teng – *täñ*, kel – *kä(l)*, eshak – *äšäk*, kelin – *kälin*, kesdi – *käsdi*, *kesak* – *käsäk*, eshit – *äšit*...

Iqon shevasida tayanch shahar shevalari va adabiy tildan farqli *u < o* mosligi mavjud: *hukumat* – *hökimät*, *hunar* – *hönär*, *umr* – *ö:mir*, *tug'di* – *to:γdi*...

So'z boshida *t < d*, *k < g* mosligi o'g'uz shevalarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lsa-da, Iqon shevasi uchun bu epizodik hodisa: *tarvuz* – *da:rbüz*, *to'rva* – *do:rba*, *turshak* – *dü:ršä:k*, *tasbeh* – *dä:sbäj*, *ta'm* – *dä:m*; *kez* – *gäz*, *karillagan* – *gä:rillägän* kabi.

Morfologik belgilari. Shevada kelishiklar miqdor jihatdan adabiy tilga mos keladi. Ammo sifat jihatidan qo'shimchalarning rang-barang variantlari mavjudligi bilan ajralib turadi: Qaratqich kelishigining *-niñ*, *-nññ*, *-iñ*, *-iññ*, *-uñ*, *-üñ*, *-ñ* variantlari qo'llanadi. Masalan: *tüjäniñ qujruyi*, *dalanin ba:ši*, *i:šin kö:zi*, *ba:jin ba:lası*, *kümün qı:zi? quduyuñ i:či*.

Men, *sen* kishilik olmoshlariga qaratqich kelishigi *-ning* affiksi qo'shilganda, tortilish hodisasi yuz beradi: *mening* ~ *me:ñ*, *sening* ~ *se:ñ* tarzida ifodalanadi: *me:ñ e:šim*, *se:ñ e:šin*; *me:ñ ba:lam*, *se:ñ ba:lan* kabi. *Me:ñ*, *se:ñ* tipidagi sinerezis shaklini olgan qaratqich kelishigidagi olmoshlarning qo'llanishi Iqon shevasining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Jo'nalish kelishigi qarluq, qipchoq guruh shevalari uchun umumiy bo'lgan *-gä*, *-ya*, *-kä*, *-qa* shakllari bilan birga o'g'uz guruhi shevalari uchun xarakterli bo'lgan *-ä*, *-a* affikslari ham qo'llanadi. Xorazm o'g'uz shevalaridan farqli ravishda Iqon shevasida faqat I va II shaxs egalik qo'shimchalarini olgan otlargagina qo'shiladi: *i:timä*, *pišigimä*, *ö:ziñä* kabi. Xorazm o'g'uz shevalarida esa asosga to'g'ridan-to'g'ri qo'shila oladi: *öjä gälmädi*; *ata mindi*; *daya čiqvädik*.

Shevada adabiy til va aksariyat o'zbek shevalaridan farqli ravishda chiqish kelishigining *-din*, *-dññ*, *-tin*, *-tññ* tarixiy shakllari qo'llanadi: *dä:däsidiñ örgändi*, *a:ldiñdin aqqan su:*, *i:štin kä:di*, *ba:štññ bašladi*. Ushbu affikslarning "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'atit turk" asarlarida, shuningdek, eski o'zbek tilida asosiy shakl sifatida keng iste'molda bo'lib, XIX asrning boshlarigacha faol qo'llanganligi qayd etilgan [Abdurahmonov 2008; 103]. Iqon shevasida *-dän* affiksi va uning fonetik variantlari, umuman qo'llanmasligi shevaning asosiy xususiyatidir.

Barcha singarmonizmli shevalardagi kabi ko'plikning *-lär*, *-lar* shakli qonunga mos ravishda amal qiladi, faqat *m*, *n*, *ñ* sonor tovushlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda *-nar*, *-när* fonetik variantiga ega bo'ladi: *ajto:mnar*, *xa:lañnar*, *tayamnar*, *a:γamnar*, *künnär*, *kä:linnär*, *me:ma:nnar*, *bariñnar* tarzida qo'llanadi. *Biz* va *siz* kishilik olmoshlari qipchoq shevalari kabi *-är* affiksini qabul qilib: *bizär*, *sizär* tarzida ifodalanadi. *U*, *bu*, *šu* olmoshlari ko'plikda *-lar* shaklini ketma-ket ikki marta qabul qiladi va qo'shko'plikni yuzaga keltiradi: *u+lar+lar < ulallar*, *bu+lar+lar < bulallar*, *shu+lar+lar < šulallar* tarzida qo'llanadi.

O'zbek adabiy tili va aksariyat shevalarda so'roq va taajjub, ta'kid, gumon, taxmin ma'nolarini anglatuvchi *-mi* yuklamasi shevada **-na**, **-nä** shaklida qo'llanadi: Ertaga ham kelaymi? ~ *Ā:rtājām kälājnā?* Sen, o'zingning xatoyingni bilasanmi? ~ *Sän, ö:zi:ŋ xata:ŋnī biläsänā?* Kuyov bola ishga boryaptimi? ~ *Kūjöv ba:la i:škā barje:ttina?* Uyda sendan boshqa odam yo'qmi? ~ *Ö:jdā se:ndin başqa a:dam jo:qna?* *Ā:rtā i:škā barasana?* ~ Hali senmi, mendan ko'rasan! *Hä, sännü, ha:li kö:räsä!* Shu yoshda ham ishlashim kerakmi? ~ *Šu ja:šdajam işläšim kārāknā?* *Hä:mmäsini e:ttiñnā?*

Shevada adabiy tildagi sermahsul sifat yasovchi *-li* affiksi qo'llanmaydi, ushbu affiks o'rnida yozma yodgorliklarga xos bo'lgan: [Абдурахмонов, Рустамов 1982; 32] *-lik*, *-liq*, *-lig*, *-liy* affikslarining *-lik*, *-liq* variantlari qo'llanadi: *bo:limliq* ~ epchil, ishbilarmon, *a:qilliq* ~ aqlli, dono, *kökräklik* ~ farosatli, aqlli, *žä:llik* ~ jahldor kabi.

Iqon shevasida asosning qattiq yumshoqligiga qarab *-lik*, *-liq* affikslari ham ot yasovchi, ham sifat yasovchi sifatida faol affiks.

Adabiy tildagi hozirgi zamon fe'l shakli *-jāp* affiksining o'zbek tili shevalarida turli variantlari mavjud bo'lib, Iqon shevasida **-je:t/jä:t** hamda **-jatip** variantlari qo'llanadi. Masalan, *Si:r sa:γip, sü:t-qatīq qip, kūn kö:rje:tmis. Oyilto:j qimayannar, kälīnčüšti to:jda kä:jit bārjā:tti. A:jam kūnčuvaqta kö:rpäčä kö:klājā:tti.*

Iqon shevasi o'zining fonetik va morfologik xususiyatlariga ko'ra, bir tomondan adabiy til va qarluq shevalari bilan umumiylikka ega bo'lsa, ikkinchi tomondan o'g'uz, qipchoq shevalariga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu umumiylik va o'ziga xoslik shevaning geografik o'rni, etnik tarkibi rivojlanish tarixi bilan chambarchas bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. — Тошкент: Ўқитувчи, 1982. — Б. 32.
2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. — B. 103.
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. — Toshkent, 2021. 176 b.
4. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. — Тошкент: Фан, 1962.
5. Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. — Тошкент: Фан, 1969. — Б. 29.
6. Xidraliyeva Z. R. O'zbek tilining Iqon shevasi vokalizmini areal o'rganishga doir// O'zbekiston: til va madaniyat. — Toshkent, 2021. — №4. — B. 54–68.